

– Maktabimizga «Tong yulduzi» tahririyatining bir guruh ijodkorlari kelishganidan quvonib ketdik. Men ular bilan bo‘lgan uchrashuvda o‘zim yozgan she’rlarimdan o‘qib berdim. Bu gazetaga 2008-yil uchun albatta obuna bo‘laman,— deydi Namangan shahridagi 37-umumita’lim maktabi o‘quvchisi

Xadicha HAYDAROVA



8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni



Yaqiniga ko‘hna va navqiron Samarqand shahriga sayohat qilgan tahririyatimiz xodimlari kuni kecha vodiyo safariga otlanishdi. Bu so‘lim go‘shaning dilkash va samimi odamlari bilan hamsuhbat bo‘lishdi, beg‘ubor va baxtiyor bolajonlari bilan uchrashuvlar o‘tkazishdi.

Ushbu maroqli safar haqida gazetamizning 4- va 5-sahifalarida o‘qiysiz.

Tongda dilim
Vatan bo‘lib ko‘karadi

Xayol meni cheksizlikka tortib borar,
Qalbim aro yurtning mehri ortib borar.
Siz bilmaysiz tuprog‘imning gardlarini –
Kipriklarim ko‘zlarimga surtib borar.

Hayot shoshqin, ezgulikni xush ko‘radi,
Zamin bizni ko‘taradi boshlariga.
Osmonlardan yog‘iladi yulduzlarim,
Jon kiradi yurtning tog‘-u toshlariga.

Tongda dilim Vatan bo‘lib ko‘karadi,
Kishanlargacha bo‘y bermaydi nomusimiz.
Adolatning bayrog‘ini baland tutib,
Haq yo‘liga chorlayverar qomusimiz!

Axtamqul KARIM



‘Tong yulduzi’ gazetasiga 2008-yil uchun obuna qizg‘in davom etmoqda.

Obuna bahosi Toshkent shahri uchun bir yilga atigi
4116 so‘m.
Nashr indeksi – 198.

Maktublardan satrlar

SIZ BILAN TANISHMOQCHIMAN

Salom, sevimli gazetamning xodimlari! Men «Tong yulduzi»ga har yili obuna bo'lamani. Buning boisi bor, albatta. Chunki bu gazetada qiziqib o'qiydigan maqolalar, biz bolalarbop hikoyalar talaygina.

Gazetadagi she'rlarni o'qib, men ham o'zimcha qog'oz qoraladim. She'rlarimni gazetada chop etsangiz, xursand bo'lardim. Mening yana bitta tilagim bor: sevimli gazetamizda biz uchun g'amxo'rlik qilayotgan tahririyat xodimlari bilan yaqindan tanishmoqchiman.

Dilnoza HOSHIMOVA,
Yunusobod tumanidagi Hasanboy
ko'chasi, «Sharq haqiqati» mahallasi

TAHRIRIYATDAN:

Aziz muxlislarimiz Dilnozaxon va Gulasal! Avvalo, bizga maktub yo'llaganingizdan, gazetamizning ashaddiy muxlisasi ekanligingizdan boshimiz ko'kka yetdi. Dilnoza maktubida tahririyat xodimlari bilan yaqindan tanishmoqchi ekanligini yozibdi. Agar siz gazetamizni muntazam kuzatib borayotgan bo'lsangiz, iyun va noyabr oyalaridagi sonlarida tahririyat xodimlarining suratlari va ularning vazifalari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Dilnoza, sizning «Qalb quyoshim», «Onajonim», Gulasal yozgan «O'zbek qiziman» singari she'rlaringiz bilan tanishib chiqdik. She'r yozishga astoydil harakat qilganingiz mashqlaringizdan ko'rini turibdi. Siz ko'proq o'z ustingizda ishlastingiz, tanqli shoir va shoiralarning she'rlaridan ko'proq mutolaa qilib turishingiz kerak. Shundagina siz o'zingiz istagandek bekam-u ko'st she'rlar bitishingizga ishonamiz. Muhimi, ijod qilishdan, izlanishdan to'xtamang.

2

Ilhomjonning dastlabki she'ri u 4-sinsda o'qib yurgan kezlarida «Jizzax ovozi» gazetasida chop etilgandi. Shundan buyon Jizzax shahar, viloyat gazetalarida ko'plab she'rlari e'lon qilindi. U yozuvchilar uyushmasi Jizzax viloyat bo'limi qoshidagi «Sangzor» adabiyot to'garagining faol a'zosi. Ilhomjon matabda a'lo baholarga o'qish bilan birga, adabiy kechalarda ham faol ishtirok etib turadi. Uning she'rlari sizlarga ham ma'qul keladi, degan umiddamiz.

Hurmat bilan: Ibrohim DONISH

IMKONIYATLAR KENG BO'LSA...


Men ham qishlog'imizdag'i barcha tengdoshlarim singari gazetani yaxshi ko'rib o'qiymen. Undagi har bir maqola, she'rlardan o'zimcha xulosa chiqaraman. Gazeta bilan birga badiiy hamda ertak kitoblarni mutolaa qilishga ham qiziqaman. Ammo qishlog'imizda bittagina kutubxona bor. Kitob o'qishga-ku erinmaymiz, ammo kutubxonaning bittaligi bizni tashvishga qo'yyapti. Qaniydi, bizda ham katta shaharlardagi singari imkoniyatlar keng bo'lsa, bunda ham o'qishga, ham izlanishga harakat qilamiz.

Xatim so'nggida o'zim mashq qilgan she'rlardan ba'zilarini jo'nata yapman. Kelajakda shoira bo'lmochiman. Shu bois ham she'rlarimni gazeta sahifalarida chop etsangiz...

Gulasal XUSHVAQTOVA,
Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumanidagi
18-umumiy o'rtalim maktabining
6-«D» sinf o'quvchisi

ALINING BAHONASI

Maktabga bormay Ali,
Ko'chada to'p o'ynadi.
O'zidan kichiklarni,
Masxaralab qiyndi.
– Nega bormading darsga? –
Deb so'radi onasi.
Bunday bo'ldi onaga,
Alining bahonasi:
– Qizartirdi muallim,
Kecha darsni bilmadim.
Borsam, ikki olardim,
Bugun darsni qilmadim.



Ilhomjon IBROHIMOV,
Jizzax shahridagi
Parda Hakimov nomli
maktabining 6-«D»
sinf o'quvchisi

– Ustoz Said Ahmad, Ozod Sharofiddinovlarni e'tiboriga tushib, maqtoviga sazovor bo'lgan ushbu asarim uzoq yillar davomida ikinchi va to'rtinchisini darsligiga kiritilib, yosh kitobxonlarning ham sevimli asariga aylanib qolgan edi. Avvalgi ikki nashri kirill alifbosida bosilgan edi. Ko'p ming sonli yosh kitobxonlarning iltimosiga binoan kitobni yaratdim, qayta ishladi. Yangi zamondan ertaklari bilan to'ldirib, lotin alifbosida chop ettirishga erishdim. Shundan bir necha boboni gazetaga berib, betoqat kitobxonlarimza, o'zingizga talabchan mustariylarga yetkazib, mammun etsangiz.

Ehtirom bilan: muallif

Bobojonim ikki-uch kundan keyin butunlay yotib qoldi, shunday qattiq kasal bo'ldiki, bilmadim, og'riqning zo'ridanmi, haroratning balandligidanmi, o'zidan ketib qolgan paytlar ham ko'p bo'ldi.

– Otajon! – dedi goho onajonimni chaqirib. Aytgandyay, sizga aytaman, deb yodimdan chiqib qolibdi. Bundan bir necha yillar oldin qo'rboshilar zamonda Otajon tog'am bilan Olimjon tog'amlarni shapka kiyagan askarlar qo'llarini orqasiga bog'lab, yerga cho'kkalatib qo'yib, peshonalaridan otib tashlashgan ekan. O'shanda askarlar shu qishloqni bizga berasan, deyishibdi. Tog'amming lar, yo'q, bermaymiz, deyishibdi. Bo'limasa, qishloqni yarmini berasan, deyishibdi, tog'amlar bermaymiz, deyishibdi. Otimizga besh arava beda, uch arava yem berasan, deyishibdi. Tog'amlar anavi kuni berdik-ku, deyishibdi. Askarlar yana berasan, deyishibdi. Tog'amlar endi hech narsa qolmadni, qishloq qup-quruq, deyishibdi. Unda miltiqni qayerdan olganining aytasani, deyishibdi. Tog'amlar aytmaymiz, deyishibdi. Shundan so'ng, peshonalarini mo'ljallab turib, varanglatib otib tashlashgan ekan. O'shanda enajonim ham, bobojonim ham rosa yig'lashgan ekan. Shunday yig'lashibdiki, ko'zlaridan oqqan yosh Dahan soydag'i suvdan ham

ko'p bo'libdi. O'shandan beri ikkovlari bir-birlarini katta tog'amning nomini aytib chaqirishar ekan. Tog'amlar narigi dunyoda tirik yurishgan bo'lsa, xayriyat, bizni eslashayapti, deb xursand bo'lishsa kerak-da.

– Otajon! – deydi goho bobom yonginasida o'tirgan onamni chaqirib.

– Shu yerdaman, – deb qo'yadi onajonim.

– Sandaling sovib ketdi-ku!


– Yo'g-e, lovullab turibdi. Hozirgina olov soldim. O'rik o'tindan ataylab yoqqan edim, – tushuntiradi onam.

– Xudo xohlasa, terlaysiz, o'rik o'tinning xosiyati ko'p, deyishadi. Terlasangiz, darddan qutulasiz.

– Qo'lingni peshonamga qo'y...

– Kaftim peshonangizda turibdi-ku.

Yana Jim bo'lasiz. Men ko'krugimgacha ko'rpani tortib, yonboshlab, o'choqdagi asta-sekin so'nib borayotgan oloviga tikilib, o'y surib ketaman: olov nega oldin yonib, keyin o'charkin, yonganda nega qip-qizil bo'lib ko'rindi-yu, o'chqanda yo'q bo'lib qolarkin? Yo o'sha qizilligi tuynukdan osmona chiqib ketarmikin, hamma tuynulkardan olov chiqaversa, osmon kuyib ketmasmikin yo bari to'planib quyoshga aylanarmikin, ehtimol tunda ko'ringan yulduzlar o'choqlardan ko'tarilgan qizil olovlardir?..



BETOBLIK

Tahririyatdan:
Biz ham siz aziz
bolalar nomidan oqsogol
adibimiz Xudoyerdi
To'xtaboyevni yangi
kitobi bilan muborakbod
etamiz. Quyida shu asar
dan parchani e'tiborin-
gizga havola qilamiz.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 9-bob 41-modda:

«Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiyyat ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir».

ODOBLI BOLA ELGA MANZUR

Odobli bolalar o'zini tutishi, gapirishi, yurish-turishi bilan barchaga o'rnak bo'ladilar.

Ustozlarimiz bizga mana shu jihatlarga alohida e'tibor berishimiz lozimligini, insonni tashqi go'zallik emas, aksincha, ichki go'zallik ko'proq bezashini ko'p uqtirishadi. Biz ham ularning o'gitlariga amal qilamiz. Chunki «Odobli bola elga manzur», deb bejizga aytilmagan-ku, axir.

Ozoda ERKIN qizi,

A.Navoiy nomidagi san'at litseyining
suxandonlik yo'nalihi o'quvchisi

2

MENING BIR TILAGIM BOR

Assalomu alaykum, qadrdon gazetam «Tong yulduzi»!

Senga yaqindagina yozgan maqolam sahifalaringga chop etilganidan boshim ko'klarga yetdi. Sen bilan qadrdon bo'lib qoldim. Sahifalaringga rang-barangligi va asosan, biz ijodkor o'quvchilarga keng o'rin berilganligi bizga juda ma'qul bo'lyapti. Ana shunday iqtidorli o'quvchilar ko'payaversin, deyman.

Aziz gazetam! Sen ko'plab iste'dodli yoshlarni barchaga tanishtirayapsan. Bu narsa tengdoshlarimning yana-da bilim cho'qqilarini zabt etishlarida turtki bo'ladi, desam adashmayman. Men sening ana shunday egzu ishlaringga muvaffaqiyatlar tilayman. Men singari respublikamizning chekka qishloqlarida yashovchi bolalarga qiziqarli ma'lumotlarni, ijodkor o'quvchilarning yangidan yangi ijodlari bilan yetib kelishingda, beminnat yordamingni ayamaganingga minnatdorchilik bildiraman.

Shahnoza QODIROVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
48-maktabning 8-sinf o'quvchisi

Xudoyerdi TO'XTABOYEV

Tashqari qorong'i, juda qorong'i. Sandal ustiga osganimiz yettingchi chirog'imiz miltillab yonadi-yu, baribir chorxari uyimizni yaxshi yoritilmaydi. O'choqdagi qizil olovni chirog'imiz shishasiga joylaganimizda, eh, qanday soz bo'lardi-ya? Uyimizda quyosh porlab turardi... Bo'ldi, ertaga onam qo'shninikiga chiqib ketganda, shishaning ichiga olov yoqib ko'raman, qog'oz yqaman, qog'oz tez yonadi.

Uning olovi ham ko'p...

– Enasi, – deb ingraydi bobojonim, – shu yerdamisan, hay, dunyo shunaqa ekan-da, kelgan odam bir kuni ketarkan-da.

– Unday demang, – deydi onajonim yolvorib, – odamning yuragiga vahima solayapsiz. Isitmangiz yana ko'tarildi, shekilli. Hozir peshonangizga latta ho'llab bosaman.

– Yo'q-yo'q, o'tir... Yonginamda o'tir, baribir issiqjon bor joyda qazo ham bor. O'tir, gapirib olay, bobojonimning nursizlanib qolgan ko'zlarida miltirab yosh ko'rindi. – Xudoga shukur, umr berdi, rizq berdi, obro' berdi... Faqat farzandlarimidan erta judo qildi-da. Arslonday yigitlar edi-ya! Har yelkasida bittadan odam o'tiradigan pahlavon yigitlar edi-ya, o', zolimlar, o', zolim zamona... Senga qiyin bo'ladi, onasi, yolg'izlik yomon... Rahmonberdi, yaxshi o'g'lim, qayerdasan, beriroq kel, qani, qo'lingni menga uzat-chi.

(Davomi bor.)

NUR SOCHAVER, QUYOSHIM!

Bayramga bag'ishlangan tadbir ishlanmasi

Tadbirni o'tkazishdan maqsad, o'quvchilar ongida Vatanga muhabbat, uning qonunlariga ishonch, muqaddas qomusimizga hurmat tuyg'ularini shakllantirishdan iborat.

O'tkazish joyi: o'quv yurtining bayramona bezatilgan majlislar zali.

Sahnada Davlat ramzlari: Gerb, Bayroq, Konstitutsiya kitobining kattalashdirilgan tasviri ilingan. Devorlari har bir guruhning devoriy gazetalari bilan bezatilgan.

Konstitutsiyamizning asosiy moddalarini katta harflar bilan yozilgan.

Mikrofon, magnitofon, videotasvirlardan foydalaniladi.

Boshlovchi:

Shukrona aytamiz qutlug' kunlarga,
Ma'noga, mazmunga to'liq kunlarga.
Ey ozod diyorim, O'zbekistonim!
Ey obod diyorim, O'zbekistonim!

Tadbirni ochish uchun so'z o'quv yurti rahbariga beriladi. So'ngra, O'zbekiston Respublikasi madhiyasi yangraydi.

Sahnaga uchta o'quvchi chiqadi.

Birinchi o'quvchi:

Yaxshilar tufayli ozod diyorim,
Ozodlik tufayli obod diyorim.
Eng olyi qomusga chekkanda imzo,
Bizlarni qutladi quvonib dunyo!

Boshlovchi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashi qaror qildi: «1992-yil 8-dekabrdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi amalga kiritilsin».

Ikkinci o'quvchi:

Ne qilsa, hurriyat qomusidir u,
Ulusning ori-yu nomusidir u.
Istiqlol yurtimda kezgan chog'ida,
Biz uni asradik ko'ngil bog'iida.

Uchinchi o'quvchi: 1-modda. O'zbekiston Suveren Demokratik Respublika.

Ma'rifat dostoni, ezgu bo'stoni,
Beg'ubor, muqaddas tinchlik qo'rg'oni.
Ey ozod diyorim, O'zbekistonim!
Ey obod diyorim, O'zbekistonim!

Boshlovchi:

Yurtning kelajagi mudom porloqdir,
Dilimizda yongan so'nmas chiroqdir.
Dunyo ko'z tikadi, bugun biz tomon,
Nur sochib turibdi zamin-u osmon.

Sahnada raqs dastasi qizlari «Asray bilgin» raqsini ijro etadilar.

Sahnaga 3ta o'quvchi chiqadi:

Birinchi o'quvchi:

4-modda. O'zbekiston Respublikasining Davlat tili o'zbek tilidir.
So'zi qudratli, sirli, ham go'zal, ham schrli,
Go'yoki tirik jondek, asl durdona tilim.
Sen millatning mulkisan, chiroysan, ko'rkisan,
Donishmand dono tilim, asl durdona tilim.

Ikkinci o'quvchi:

Bayrog'imizing rangi moviy, oq hamda yashil,
Ko'rsam dilim quvonar, yayrab ketadi ko'ngil.
Moviy rangda uning ezgu o'ylar ramzi bor,
Olam havas qiladi, biz yashaymiz baxtiyor.
Yashil rangda yurtimning baxti bordir barqaror,
Oq rangida elimning yo'llari oydin diyor.
Tonglari bor qalbida mudom toza, beg'ubor.
Bayrog'imining rangida o'zligim bor, o'zim bor.
Dunyolarga taralar, dunyo tinglar so'zim bor!

Uchinchi o'quvchi: O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahridir.

Ey ko'hna diyorim, ona Toshkentim,
Tarixda nomi Choch, gohi Shosh kentim.
Zulmlar qatridan ko'zi yosh kentim,
Egilgan, sinmagan boshi tosh kentim!
Iskandar, Chingizlar bosgan elini,
Qutayba sovurgan ko'kka kulini.
Qizillar yo'qotmoq bo'ldi tilini,
Qaralgan, qaytadan bo'lgan bosh kentim!

«Men nechun sevaman O'zbekistonni» A.Oripov



she'riga qo'shiq kuylanadi.

Sahnaga 4ta o'quvchi chiqadi. Konstitutsiya qonunlariga xilofish qilgan o'smirlar haqida teatrlashgan ko'rinishi qilinadi.

Birinchi o'quvchi: Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi.

Vatan posbonimiz, bo'laylik hushyor,
Bizni ardoqlagan go'zal Vatan bor.
Fidoiy bo'laylik mustaqillikka,
Hech narsa teng kelmas chin ahillikka.

Ikkinci o'quvchi: 42-modda. Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Har kim bilim olsa gar,
Ilm erur oltin-zar.
Dunyoni yashnatgan ilm-u zakovat,
Ilmi bilan odam jahonni bezar.

Uchinchi o'quvchi chiqib «O'zbegim» she'ri ni yod oladi.

Qizlar raqs dastasi «O'zbegim» qo'shig'iga raqs ijro etishadi.

OITS va giyohvandlikka, o'smirlar orasida uchraydigan jinoyatchilikka qarshi kurash mavzusida sahna ko'rinishi qilinadi.

O'quvchilar bilan «Kim Konstitutsiya qonunlarini yaxshi biladi?» degan mavzuda o'yin viktorinasi o'tkaziladi. Savollarga to'liq javob bergan o'quvchilar o'quv ma'muriyati tomonidan ajratilgan sovg'alar bilan taqdirlanadilar.

Tadbir so'ngida hamma qatnashuvchilar sahnaga chiqib, «Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!» qo'shig'ini kuylashadi.

*Zuhra MAQSUDOVA,
Toshkent yuridik kolleji o'qituvchisi*



Mahallamizda bir onaxon yashaydi. Onamning aytishicha, juda barvaqt beva qolgan bo'lsa-da,

yolg'izgina o'g'lini deb qayta turmush qurmagan ekan. Orzu-havaslar bilan to'y qilib, kelin tushirdi. Bu oila baxtiga, totuvligiga ko'pchilik havas qilardi. Avval Shuhratjon, keyin esa Shahnoza ismli nabiralari dunyoga kelganida onaxonning suyunchilamagan kishisi qolmadidi, hisobi. Biroq, quvonchi uzoqqa cho'zilmadi.

Nima sabab bo'ldi-yu, o'g'li bilan kelini

Hayot ostonasida

buviga bu kunlar ham kamlik qilgan ekan chog'i, yaqinda kichik nabirasi Shahnoza ham uyidan qochib kelibdi. Buvisining pinjiga suqilib, yum-yum yig'lab, shunday debdi: «Buvijon, oyim meni qidirib kelsalar, ularga berib yubormang. Oyim bilan yashagim kelmayapti. Har kuni uyimizga har xil erkaklar kelishadi. Ular kelishi bilan oyim meni, bor, biroz o'ynab kel, «mehmonlar»ning oldida to'polon qilsang, uyat bo'ladi, deya ko'chaga chiqarib yuboradilar. «Tinchgina darsimni tayyorlab o'tiraman», desam ham ko'nmaydilar. Televizor ko'rib o'tirgan paytlarim hecham ko'chaga chiqqim kelmaydi. Oyim bo'lsalar amakilarning yonida turtib-turtib chiqarib yuboradilar. Ular ketishgach esa meni quchoqlab, suyadilar, shirinliklar beradilar. Qo'llaridan siltanib chiqib ketgim keladi-yu, tarsaki tushirib qolishlaridan qo'rhib, jilmayib turaveraman. Jo-on buvijon, men ham siz bilan yashay...». Nadiraga qo'shilib buvining nursiz ko'zlar ham jiqla yoshga to'lda. Shahnozaning xavotiri o'rinsiz ekan. Onasi olib ketishi u yoqda tursin, hatto qidirib ham kelmad...

Hozir ular birga yashayapti. To'g'ri, yeyar-ichardan, kiyim-boshdan kamchiliklari yo'q, dadasi barini muhayyo qiladi. Lekin u kun bo'yi xizmatda, ikki o'smirlarning tarbiyasi esa sakson yoshni qoralab qolgan onaxon zimmasida. Ne-ne orzu-umidlar bilan o'g'il o'stirgan, qarigan chog'imda suyanchig'im bo'ladi, qo'limdan yumushimni oladi, degan niyatda kelin tushirgan onaxonning aybi nimada?

Qarigan chog'ida uy-ro'zg'or yumushlari-yu, nabiralarini oq yuvib, oq tarash zimmasida ekanligi yetmagandek, ketidan poylab ham yurishi insofdanmi, axir?! Farzandlari tarbiyasi bilan shug'ullanish o'rniga yengil-yelpi hayotni afzal bilgan ona-chi, o'smir yoshidagi qiziga qanday namuna bo'lyapti? Qolaversa, biz qo'ni-qo'shnilar bu holga shunchaki tomoshabin bo'lib qolmayapmizmi? Siz nima deysiz, azizlar?

BUVIJON, SIZ BILAN QOLAY...

ajrashib ketishdi. Shuhrat dadasi bilan qoldi. Shahnoza esa onasi bilan ketdi. Oradan yillar o'taverdi. Shuhratjon ko'z o'ngimizda ulg'ayib bordi. Mahalla bolalari bilan ko'cha changitib yuradigan bolakay borgan sari ulardan uzoqlasha bordi. Keksa buvisiga so'z bermay qo'ydi. Yangi «do'stlar» orttirdi. Otasi uzzu-kun xizmatda. Shuhrat esa har tong «maktabga ketdim» deya allaqayoqlarda sang'ib yuradigan odat chiqardi. Uni ko'p marta tartibga chaqirdik. Sigaretasini tortib olib, tanbeh berdik, o'zgarish bo'lmadi. O'qituvchilar ota-onasini chaqirtirishsa, dadasi ishda bo'lgani uchun majlisga ham buvisining o'zi borardi. Nabirasi tarbiyasidan xavotirga tushgan onaxon yaxshi ham, yomon ham gapirib ko'rdi. Uning nasihatlari Shuhratning o'ng ulog'idan kirib, chapidan chiqib ketaverdi. Bir kuni barvaqt xizmatga ketayotib, onaxonni uchratib qoldim. Aytishicha, nabirasiga sezdirmay ortidan izma-iz borayotgan emish. Maktab darvozasidan

Feruza JALILOVA

KELAJAKKA INTILGAN YO'LLAR...

O'QUVCHI MAKTABDAN YANGILIK OLSIN



Dilshoda DADAJONOVA,
Namangan viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i:

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-iyuldagisi «2004-2009-yillarda maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i»:

Bizning o'quvchilarimiz bugungi kunda jahon maydonlarida bemalol raqobatlashayapti: Bunda, albatta, o'qituvchilarimizning mehnati katta. Har bir usto o'z faniga mehr bersa, o'quvchisi ham o'sha fanga ixlos qo'yadi. Maktablarimizdagi zamon talabalariga javob beradigan jihozlar ko'z-ko'z uchun emasligini ustozlarimiz juda yaxshi biladilar.

Biz ko'plab e'tiborni chegara hududlaridagi o'quv maskanlariga qaratganimiz. Bunyodkorlik ishlari ham avvalo qishloqlardagi o'quv maskanlaridan boshlangan.

Yaqinda qirg'iz tiliga ixtisoslashgan maktabimizni ta'mirdan chiqardik. Qirg'iz birodarlarimiz quvonchini ko'rib, dilimiz yana-da yarayab ketdi.

Hali qiladigan ishlarimiz bisyor. Pedagoglarimizning faoliyatini yana-da oshirishimiz lozim. Zero, mas'uliyat hissi har bir ustozda, har bir rabbarda bo'lsin. Qachonki, o'quvchi maktabdan, o'z ustozidan yangilik topsa, ularda intiluvchanlik, izlanuvchanlik tashabbuslari shakllanadi.

Namangan azaldan el suygan adiblari, olimlari bilan faxrlanadi. Shunday ekan, ularning avlodlari ham ajodlariga munosib bo'lishga intildi.

80 YOSHLI GAZETA



etiladigan «Bolalar dunyosi» gazetasining Bosh muharririman.

Bolajonlar, o'z nashrlaringizni doimo kuzatib boring. Yaqinda barchamizning sevimli nashrimiz 80 yoshta to'ldi. Biz ham ulug' yoshti gazetaga nuroniy yoshing muborak bo'lsin, deymiz.

Bolaligimdan adabiyotga mehr qo'yg'anman. Ilk ijod namunalimar respublika gazetasida chop etilgan. Shuning uchun ham o'smirlar davrimdan menga do'st bo'lib qolgan ushbu gazetaga hurmatim baland.

Ayni paytda bobongiz yoshidaman. Haligacha bu gazetaning har bir sonini o'qiyan.

Bir necha yildirki, Namangan viloyatida chop

Po'lat HAMDAM
TAHRIRIYATDAN: Bolalarning eng yaqin do'sti

Po'lat HAMDAM haqidagi kengrog maqolani gazetaning keyingi sonlarida o'qisiz

«XON» NING SO'ZI

Kashandalar do'st-yori
Men – «XON» bo'laman.
Ichim to'la nikotin,
Qurumlarga to'laman.

Bir totib ko'r mazamni,
Rosa o'duzuro qilasan.
Chekib-chekib qarimani,
Yoshligingda o'lasan.

Bumg'arema SOIROVA,
Farg'onan shahri, 1-
o'qarvachilar jadidig'i asuluctisi



Aziz o'quvchilar! Gazetamizning har bir sonini kuzatib borganingizda, albatta yurtimiz bo'yab safar taassurotlari bilan yaqindan tanishasiz. Bu galgi safarimiz vodiya bo'ldi. Chunochi, vodiyligi tengdoshlarig'iyoti, ularga rahbarlik qilayotgan insonlarning kelajak sari yorug' yuz bilan dadil qadam tashlayotganligidagi guyoh bo'ldi. Farg'onan, Andijon va Namangan shaharlari, tuman va qishloqlarida bo'lib, bir olam quvonch bilan tahririyatga qaytdik.

Safar davomida anglaganiz shu bo'ldiki, nazarmizda, cheksiz orzular ishqida yonayotgan vodiyligi har bir yoshning maqsadini go'yo kelajakka shoshib ketayotgan yo'lg'a o'xshatdi.

Viloyat Xalq ta'limi boshqarmalarida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida», «Kadrler tayyorlash milliy dasturi» asosidagi Qonulari, Yurtboshimizning ta'lilda islohotlarning chuqurlashirish bo'yicha qabul qilingan Farmonlari, hukumatimizning qaror va farmoyishlariga binoan ko'plab ibratlari, jumladan, bunyodkorlik ishlarini ko'rib quvondik.

Xalq uchun nondan so'ng eng muhimi maktabdir.

J. DANTON

YOSHLAR UCHUN MAS'ULMIZ

Dilmurod RAHMATULLAYEV,

Andijon viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i:

– Viloyatimizda 746 ta maktab bo'lib, unda 556 mingga yaqin o'quvchi ta'lim-tarbiya oladi.

Yangi dastur bo'yicha ko'plab maktablarimiz kapital ta'mirdan chiqdi. Buloqboshi, Izboskan tumanlarida yangi maktab qurilib, foydalananishga topshirildi.

O'qituvchilik albatta mashaqqatli kasbdir. Bugun negadir o'qituvchilik kasbidan voz kechib ketayotganlarni ham uchratib turibmiz. Lekin yaqin yillarda maktab o'qituvchisi bo'laman deguvchilar navbatda turishi shubha yo'q.

Viloyatimizda bolalar sportiga katta shhamiyat berilmoqda. Hatto bolalar o'tasida jinoyatchilikning kamayishi ham sport bilan bog'liqdir.

O'tgan yillar mobaynida 56 ta spott inshootlari qurildi. Ularning 51 tasi qishloq joylarida joylashgan. Raqamlarga e'tibor qarataks, 2003 -yilda 6-17 yoshliar o'rtasida muttzaz sport bilan shug'ullanuvchilar soni 26,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2007-yilga kelib bu ko'rsatkich 39,8 foizni tashkil etdi.

Biz farzandlarimizni bog'cha yoshidaqoq sportga oshno qiflismiz zarur. Qishloqlarda badiyi gymnastikani shakllantirdik. Avalo, qizlarni sportga jalb etish borasida ko'plab ishlarni boshlab yubordik. Birgina Bolalar va o'smirlar suzish sport maktabimizda Maftuna To'xtasanova, Ra'no Amanova bugun jahon arenalarida erishayotgan yutuqlaridan barchamiz xursandmiz.

Har bir bolada iqtidor bor. Ularni vaqtida ilg'ay olish, asosan, ustozga bog'liq. Shunday ekan, har birimiz kelajak uchun mas'ul ekanligimizni unutmashimiz shart.

CHEMPIONLAR KO'PAYADI

Bizning Andijonimiz yurtimizda championlar maskani, deb tanilgan. Bunga sabab, viloyatimizda sportga yaxshi e'tibor berilganidan do'sh bilaman. Yana shuni aytishim kerakki, championni murabbiy tarbiyalaydi. Men murabbiyim Rustam Amirov yordamida sportning suzish turi bo'yicha katta yutuqlarga erishmoqdamon. Hozirda respublika terma jamoa a'zosiman. Xorij musobaqalariga ham chiqyapman. Ammo yetarli darajada emas. Yaqinda Bolalar va o'smirlar suzish sport maktabimizda yangi, 25 metrlik suv havzasini qurilib ishg' tushdi. O'ylaymanki, kelajakda sportning suzish turi bo'yicha viloyatimizda championlar soni yana-da ko'payadi.

Ra'no AMANOVA, Andijon shahridagi 43- maktabning 8- sinf o'quvchisi, sportchi

ISHTIYOQ SO'NMASIN

Andijon shahridagi 43-umumta'lim maktabiga kirib borganimizda, o'quvchilar uchrashuvga tayyorgarlik ko'rishayotganligining guvohi bo'ldik. Uchrashuvdan so'ng, o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rincosari Ominaxon Iminova maktabdagisi fan to'garaklariga haqida quyidagilarni aytib o'tdilar:

– Maktabimiz qoshida 37 ta fan to'garaklarini o'z vaqtida ish olib bormoqda. To'garaklar turli fanlar bo'yicha bo'linib, o'quvchilar o'z qiziqishlariga ko'ra ushbu to'garaklarga qatnashadilar. Har bir to'garak rahbari o'quvchilarini iqtidoriga alohida e'tibor berib, ularni o'z faniga bo'lgan ishtiyoqini yana-da kuchaytirishga harakat qilmoqdarlar.

Darhaqoat, bu maktab o'quvchilarining bilim va iqtidorlari qisqagini bo'lib o'tg'ib savol-javoblardan ham ma'lum bo'ldi. Bu bilimga chanqoq yoshlarning ilm olishiga bo'lgan ishtiyoqlari hech qachon so'nmasis, deb qolamiz.

Go'yo keldim endi xushimga,
Tinchlik bermay qo'ydi bir tilak.
Necha kunki kirar tushimga,
Men shifokor bo'lismish kerak.

Naqshbanding cho'kib qoshida,
Yuragimni yozishim kerak.
Armon ketsin ko'zim yoshida,
Men shifokor bo'lismish kerak.

Madina OSMOVA,
Namangan viloyatida 37-
maktabning 9-«G» sinf
o'quvchisi

Sahifani M.MADRAHIMOVA,
F.O.DILOVA
va G. ORIFJONOVALAR

tayyorlashdi

BOLALAR ARMIYASI

Nazirjon HAKIMOV,
Farg'onan viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i
o'rinsbosari:

– «Tong yulduzi» gazetasini «Bolalarining katta armiyasi», deb hisoblayman. Chunki Farg'onan viloyati bo'yicha 915 ta maktab bo'lsa, ularda ayni kunlarda 650.000 ga yaqin o'quvchi bilim olmoqda. Bu ko'rsatkich biringa Farg'onan viloyatida deb oladigan bo'lsak, butun respublikamiz bo'yicha ko'rsatkich soni oshib ketadi.

«Tong yulduzi» gazetasi esa O'zbekiston respublikasi bolalarini va o'smirlarining yagona nashri hisoblanadi. O'quvchilar ushbu gazetani qo'llariga olib, avvalo muhit bilan tanishadilar. Qolaversa, hech bo'limganda, chop etilgan maqolalarni ko'zdan kechirib, yozishni, chizishni o'rganadilar. Bu borada televide niye va radioning o'mi boshqa. Chunki mat bilan o'quvchi gazeta orqali tanishib, savodxonligi o'sadi.

Gazetaning yana bir asosiy jihat, joylarda muttazam targ'ibot va tashviqot ishlarini olib boradi. Men xohlardimki, maktablarda har bir sinfdan hech bo'limganda 5 nafar o'quvchi «Tong yulduzi»ga obuna bo'lsa. Ana shunda bugungi kun o'quvchilar kelajakda yuksak ma'nnaviyatlari insonlar bo'lib yetishadilar.




BIZNING QASAMYOD

«Biz musiqa maktabida o'qir ekanmiz, maktabda yaxshi o'qishga, ko'rik-tanlov larda faol qatnashishga, darslarga o'z vaqtida kelishga, imtihonlarni oly darajada topshirishga qasamyod qilamiz».

Farg'onan viloyatidagi 26-Bolalar musiqa maktabi o'quvchilarini nomidan:

Shahzoda MUHSINOVA, 18- maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi



MUQADDAS KASB

Bolalar, albatta sizlar murabbiy so'zini qadrlaysiz. Chunki siz ulardan ajodlar merozini, ona Vatan sarhadlarini, cheksiz mehr-muhabbatini o'rgandingiz va o'rganmoqdasisiz.

Men ham hanuzgacha ustozlarimi shirin xotiralarim bilan eslayman. Bugun esa o'zim ustozlar gazetasida ishlayapman. Ularning bolalarni sevuvchi beg'ubor qalbalariga, jonajon bor mehmmon bo'lganman. Agar bilsangiz, dunyoda eng sharafli kasblardan biri o'qituvchilik. Yana, e'tibor bergannmisiz, o'qituvchi va o'quvchi so'zi doimo yonmay yuradi.

Kalqimizda bir gap bor: ustozini hurmat qilgan shogird kelgusida o'z o'rmini topadi. Ishonamanki, siz ham o'qituvchilarining ota-onangiz kabi sevib ardoqlaysiz. Olimjon XONAZAROV, «Murabbiy» gazetasi Bosh muharriri



Go'yo keldim endi xushimga,
Tinchlik bermay qo'ydi bir tilak.
Necha kunki kirar tushimga,
Men shifokor bo'lismish kerak.

Naqshbanding cho'kib qoshida,
Yuragimni yozishim kerak.
Armon ketsin ko'zim yoshida,
Men shifokor bo'lismish kerak.

Madina OSMOVA,
Namangan viloyatida 37-
maktabning 9-«G» sinf
o'quvchisi

Sahifani M.MADRAHIMOVA,
F.O.DILOVA
va G. ORIFJONOVALAR

tayyorlashdi

Astrid LINGREN



va Bolakay haqida qissa

deb menga ishonmay turibsan, a?

– Bo'imasam-chi, albatta o'zing to'qib chiqargansan.

– Agarda u chindanam bor bo'lsa-chi, nima deysan, Gunilla?

– Bor bo'lsa, biz ham ko'rardik. Asli yo'q narsa-da Karlson deganing.

Xuddi shu paytda shkaf to'qilladi va ichkaridan «Qaqa-qu-uql!» degan aniq-tiniq ovoz eshitildi.

– Bu nima bo'ldi, a? – Gunilla hayron bo'lib atrofga alangladi. Shkafdan yana «xo'roz» qichqirdi:

– Qaqa-qu-uq!

Krister ham ajablandi:

– Og'ayni, shkafda xo'roz boqib qo'yibsanmi deyman, a? Bolakay hoholab kulib yubordi.

– Hozir shkafni ochib ko'raman! – deb Gunilla to'rga o'tdi va zarb bilan shkaf eshigini ochdi. Krister ham qiziqib uning yoniga bordi. Avvaliga ular qorong'i shkaf ichida hech narsa ko'rmadilar. Faqat kimningdir hiringlab kulgani qulqoqha chalindi.

Bunday qarashsa, tepadagi taxmonda dum-dumaloq bir kishi qo'lini yostiq qilganicha kulib yotardi. Uning favorang ko'zları chaqnab turardi.

Gunilla bilan Krister nafas olmay Karlsonga tikilib qoldilar. Ular lom deb gapirolmas, go'yo

6

Erkin MALIK

BO'LGAN ORTLAR BO'LGAN EDI...

UCHAR ORTLAR

Qissa

Mamariza tog'a arqonni ostob tushib turgan jazirama joyga halqa qilib qo'yidilar-da, ombirni ilonning bosh tarafiga olib bordilar. Ha, jonivor, o'zingga-o'zing jabr qibsan-ku, mana endi kuning bitdi, deb qo'yidilar. Birdan ilonning dumti biltanglab, yechilib, bolaning qo'lini qo'yib yubordi. Mamariza tog'a ilonning boshini ombir bilan qisganicha ozod ko'tarib, halqa ichiga tashladi. Ustalardan biri ilonni ketmon bilan chopib tashlamoqchi bo'ldi. Mamariza tog'a qaytardi: «Tegmang, u hali bizga kerak». Ilonning boshi qon, ammo tirik edi. Ilon jon holatda qochib qolmoqchi bo'ldi. Biroq, rostdan ham sirli arqondan oshib o'tolmadi. Katta-yu kichik, kim tikka turganicha, kim tizzasiga tayanib engashganicha, kim mullavachchalardek cho'kka tushganicha haykaldek qotib qolgan edi. Bolani ilondon bo'shatgandan keyin o'ziga kelarmikin, deb kutdik. Yo'q, u bu g'alati tomoshalardan qolib, qimirlamay yotardi.

Mamariza tog'a bolaning ilon tishlagan o'rta barmog'iga tupuklaridan qayta-qayta surdilar-da, yoniga cho'k tushib, berilib qiroat bilan o'qiy boshladilar.

Shu payt bolaning otanasi boshlab Karimboy chol kelib qoldi. Onasi dod deb eriga yopishdi-yu, erxotin yerga qulashdi. Eri domlalarga ishonmas ekanmi, xotinini nari itarib, Mamariza tog'aga

tillari tanglayga yopishib qolgandek edi.

Nihoyat Gunilla arang tilga kirdi:

– Bu kim bo'ldi?

– Xayolda to'qib chiqarilgan bir kishi. Tomda yashab, xo'roz bo'lib qichqiradigan va uchib yuradigan eng dono, eng mug'ombirlardan biri-da, kim bo'lardi.

– Bo'ldi, topdim! Sen o'sha uchar odam Karlsonsan, to'g'rimi?

– Albatta-da! Harqalay, to'qson ikki yoshni urib o'yan Gustavson degan qari momong emasman.

Bolakay o'zini to'xtatmay kulardi. Karlson taxmondan sakrab tushdi. Gunillaning betini og'ritmay, chimchilab qo'ydi.

– Bu mening sinfdoshlarim, – dedi Bolakay, – mana bu qiz Gunilla, bunisi Krister. Kuchuk ham Kristerniki, u Yoffa.

Karlson kuchukning qulog'iga chertdi. Yoffa hangillab nari qochdi. Krister bilan Gunilla bo'lsa hamon ajablanib Karlsonning yelkasidagi parrakni tomosha qilishar, har bir gapiga zavqlanib turishardi.

– Men zerikib ketdim, – dedi bezovta bo'lib Karlson, – birorta o'zin topib o'ynaylik. Bo'lmasa, uyimga ketaman. Mazza qilib yotaman.

Gunilla bilan Krister, ayniqsa, Bolakay Karlsonning ketib qolishini sira istashmas edi. Shuning uchun zo'r berib qanaqa o'zin o'ynasak ekan, deb bosh qotira boshlashdi. Oxiri Karlsonning o'zi o'zin topdi.


– Kelinglar, arvoh-arvoh o'ynaymiz. Bitta choyshab yordamida men shunaqangi tomosha ko'rsatib odamlarni kulgili ahvolga solamanki... Agar o'sha odamlar menga besh tiyindan bergenlarida ham hozir ustimda mana bu shkafday shokolad g'arami uylig'an bo'lardi. Xo'sh, boshladikmi?

Gunilla bilan Krister jon deb rozi bo'lishdi. Bolakay esa ikkilandi.

– Odamlarni shunchalik vahimaga solish shartmikin? – deb qo'ydi.

– O'zingni bos, Bolakay! – dedi Karlson, –

Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.



tashlanib qoldi. Paksachilar uni ajratib, nari olishdi. U nuqlu yulqinib so'kinardi. «Qamataman sen bid'atchini, yo'-o'q, Sibir qildiraman, Sibir...» Karimboy chol chidolmay uni bir-ikki mushtlab tashladi. Kimsan, qishloqning shunday hurmatli kishisini kelgindi bir odam oyoqosti qilishi yaxshimi?! Bolasini ilonga Mamariza tog'a chaqtiribdimi? Ammo bu baqiriq-chaqiriqlardan Mamariza tog'aning bir tuki ham o'zgarmadi. Hech narsa bo'lmagandek, hech narsani ko'rмагандек, so'kishlarni eshitmagandek o'qishda davom etaverdilar. Ular bolaga dam solar, ora-chora ostobda kulcha bo'lib yotgan ilonga ham qarab-qarab qo'yardilar. Oxiri bolaning otasi qaygadir do'xtir izlab chopa ketdi. Bolaning onasini yuziga suv sepib, o'ziga keltirishdi. U bolasidan

kimlarni qanchalik qo'rqtishni yaxshi bilaman. Haligacha hech kimning yuragi yorilib o'lgani yo'q.

Karlson Bolakay yotadigan karavotdan oppoq choyshabni tortib oldi.

– Mana shu bo'ladi, – dedi u, – ikki yeridan teshik ochsak, tap-tayyorgina arvohning o'zi-da!

U yozuv stolining tortmasidan rangli bo'r oldi-yu, choyshabning bir chetiga xunuk bir basharaning rasmini chizdi. Keyin qo'liga qaychi oldi. Bolakay, hay, nima qilmoqchisan, deb uni to'xtatguncha sharillatib choyshabni qaychilashga tushdi. Choyshabning ikki yeridan o'zining ko'ziga moslab ikki teshik teshdi.

Karlson choyshabni yopindi. Ikki teshikdan uning ko'zları yiltirab turar, kalta, semiz qo'llari esa tashqarida osilib yotardi. Bu Karlson ekanligini bilishsa-da, bolalarni ozgina vahima bosdi. Bir vaqt Karlson motorini o't oldirdi va shiftdag'i qandil atrofida zuvillab ucha boshladi. Yengil shamolda oppoq choyshab hilpirab uchar, rostdan ham xonada dumaloq bir arvoh suzib yurgandek edi. Bolalar endi chinakamiga qo'rqiб ketishdi. Hatto Yoffa ham tanimay, akillay boshladi. Karlson esa xursand edi.

– Qalay, motor o'rnatilgan kichkina arvohga o'xshadimmi, yo'qmi? Arvohning parvozi qalay, chiroylimi? – deb hamon qandilni aylanardi.

Uchchala o'rtoq og'iz ocholmay Karlsonga tikilib qolishdi. Karlson yerga qo'ndi. Biroq, yopinchig'ini olmadı.

– Endi qo'rqtadigan odam topish kerak. Qayoqqa borsak ekan-a?

Shu payt telefon jiringladi. Bolakay, oyim bo'lsa tergab yurmasin yana, deb go'shakni olmadı.

(Davomi bor.)

GULZORLARDA TANHO QOLDIRMA...

Urimming eng shaffof tomchisi, billurdek musaffo osmonim. Shunday bir iboli, andishali qalbimda paydo bo'lgan olovli muhabbatimni hammadan yashirib o'z hislariidan uyalganlarim, sevgim va g'ururim olishib ko'z ochib ko'rganim, hayotda haqiqatdan ham mayjud ekanligim rostligiga ishontira olgan ilohiy kuchimning ko'zlariga bir bor boqishga kuch topa olmaganim. Barmoqlarim uchlarigacha titroq va tuyg'ularimning shirin og'riqlarini his qilganlarim. Eh, u damlar, uyimizda hamma mazza qilib televizor ko'rayotgan vaqtida: «Oyijon, boshim og'riyapti», deb ming turli bahonalar bilan yotib olib xayol surib, totli va samimiyy tuyg'ular lazzatini totganlarim. Shahzodamning har kuni ko'chamizdan o'tib ketishini sezganimdan keyin tong saharda uyg'anib, butun boshli katta ko'chaga shalabbo qilib suv sepib supurganlarim-u erinmaganlarim. U meni, chaqqon qiz ekan, deb o'ylasin degan fikrda tinimsiz ish bilan mashg'ul bo'lganlarim. Qay birini

aytay, o'shandagi o'zimni qanday tutganlarimni eslab, chekka-chekkalarda hech kimga sezdirmay kulganlarim. Mening o'n sakkiz yoshim... Agar menga butun dunyoni tortiq qilganlarida ham bu damlarimni alishmasdim. U paytda armonni tanimasdim. G'amlar rangini ajratolmasdim. Ko'p narsalarni tushunmasdim. Ehtimol, shuning uchun ham baxtiyor edim. Hamma ko'nglimday yuvvosh va mehribon tuyulardi. Xayollarimda o'n sakkiz ming olamni oqqushga aylanib, kezib chiqardim. Qani endi imkon bo'lsa, o'sha onlarga bir lahzagagina qayta olsam. Sog'inganman o'n sakkiz yosh quvonchlarini, sog'inganman o'n sakkiz yosh go'zalliklarini. Budamlarim hech qachon qaytib kelmaydi. Ammo o'sha shirin tuyg'ularim bilan hayotim davom etishini Xudoyimdan iltijo qilib yashayman.

Nafisa RUSTAMOVA

QALBIMIZ GO'ZAL BO'LSIN

Muhabbat azaliy va ko'hna dard. Ammo har bir yosh uni navqiron qiladi. Bu dunyoni ko'zingizga kamalak rangida ko'rsatadigan, sarxush ertaklar so'zlab, sizni sirla olamga yetaklaydigan ham Muhabbatdir. Unga erishish, u bilan xayolan suhbatlashishday baxt yo'q, menimha.

Biz muhabbat deganda nimani tushunamiz? Hozirgi kunda tengdoshlarimiz orasida «Anavi qiz yoki yigit chiroli ekan, men uni sevib qoldim», degan gaplar qulog'imizga chalinadi. Demak, sevgi chiroya ekan-da?

Menimha, bu bilan biz oly tuyg'uning dardini tushirib yubormayapmizmi? Sevgan va sevilgan insonning nafaqat tashqi ko'rinishi, balki ichki dunyosi ham go'zal bo'lishi lozim. Ular o'z muhabbatlariga erishish yo'lida uchraydigan barcha qiyinchilik-u sinovlarni yenga oladilar. Afsuski, ayrim tengdoshlarimiz yengil-yelpi qarashlari bilan bu tuyg'uni toptayaptilar. Haqiqiy muhabbat ko'cha-ko'yda, saylgholarda qo'ltiqlashib yurish-u sevgisini ko'z-ko'z qilishda emas, aksincha, insonning bir-biriga ishonchi-yu hummatida.

Rivoyat qilishlaricha, Laylining go'zalligi haqidagi shov-shuvlar o'sha davr podshohlaridan birining qulog'iga chaliniq qolibdi. Qizni ko'rmoqlikni niyat qilibdi. Laylini ko'rib, unchalar chiroli emasligiga amin bo'lgan shoh: «Majnun uning nimasiga bunchalar oshiq bo'libdi?» degan xayolga boribdi. «Majnunni rom qilgan narsa Laylining husn-jamoli emas, balki go'zal xulqidir», deya javob aytishgan.

Aziz tengdoshim, hoyu-havaslarga uchmay, har bir ne'matni qadrlamoqni o'rganishimiz joizligini unutmaylik!

Mafstuna ESANOVA,
O'zMU jurnalistika fakulteti talabasi

TIL - MILLAT BOYLIGI

Poytaxting Sergeli tumanidagi 322-maktabda «Til bayrami» bir necha kun davom etdi. Unda, ayniqsa, maktabning 5-«A», 5-«E», 6-«B», 9-«D» sinf o'quvchilar faol ishtirok etdilar.

Bayram tadbirida o'quvchilar ijrosida namoyish etilgan «Til odobi», «Bosh va til» kabi ajoyib sahnali ko'rinishlar, «O'zbekiston» qo'shig'i hamda turfa xil jozibali raqsalar ko'pchilikda katta taassurot qoldirdi. 5-«A» va 6-«B» sinf o'quvchilar ijob etgan Alisher Navoiy va Gulib obrazlari haqiqiy aktyorlik darajasida yetuk mahorat bilan haqqoniy tarzda olib berilganligini ko'rgan tomoshabinlar hayajondan qalqib ketishdi. O'quvchilar

butun vujudi bilar asar ruhiga singib rol o'ynadilar. Muhammad Yusuf kabi shoirlarning ona tilimiz haqida yozgan she'r va g'azallaridan o'qib berishdi.

— O'z tilini bilgan xalq kuchlidir, degan naql bor xalqimizda, — deydi 322-maktabning 5-«A» iqtidorli bolalar sinfrahbari Nigora Ro'zmetova, — hatto, bulbullar xonishi ham o'z tilida jarangdor va jozibalidir, deganlaridek, o'zing tug'ilib o'sgan hur va ozod yurtingda go'zal va betakror ona tilingda so'zlashib, ijod qilishga nima yetsin?!

Maktabda o'n kunlab davom etgan ushbu bayram tadbirining o'tkazilishi o'quvchilarda Vatanga sadoqat, ona tilimizga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'usini yana-da kuchaytirdi.

Mafstuna va Marjona ASQAROVAlar,
Sergeli tumanidagi 322-maktabning
«Yosh qalamkashtlar» to'garagi a'zolari

HAYOTINGIZNI ZULMATDAN SAQLANG

Inson dunyoga kelgach, ota-onha, ona Vatan mehrini his etadi. Hayotga nisbatan cheksiz mehr qo'yadi. Ana shu muhabbat uni ulkan ishlarga, yaxshiliklarga chorlaydi. Hayot shu qadar go'zalki, buni har bir lahzada his etib yashash lozim.

Tonggi shabnamalar, sarrin yellar, betakror onlar, charog'on kunlar, shafaq olovları – bularning barchasi siz-u biz uchun ato etilgan buyuk ne'matlardir. Yaqinlarining bo'lgan mehr-u muhabbatning, razolatga qarshi nafratingiz, dilingizni to'kib-to'kib titratuvchi tuyg'ularingiz sizning ma'naviy boyligingiz aslida. Afsuski, noshukurlik qilib, o'zi bilmagan holda «ko'ksiga tig' sanchib», umrini qirqayotganlar ham yo'q emas. Hozirgi kunda OITS (Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi) balosi minglab insonlarning hayotiga sirtmoq solib, ajal so'qmog'iga tortqilayapti. Chunki o'sha insonlar qalb ko'zlarini ko'rli bois OITSning ildizi – giyohvandlikka qul bo'lishga ulgurganlar. Oqibatda bu g'ulomlik ularni go'zal hayotdan ajratib, azoblar girdobiga tashlamoqda.

Ertaga tongda uyg'oning, boqqa chiqing, daraxtlarning osmonga cho'zilgan kaftlarida quyosh nurlari jilvalanishining guvohi bo'lasiz. Bulbul navolari yuragingizni siypalaydi. Samodagi oppoq bulutlar sayri go'yo ko'nglingizga ko'chadi...

Nahotki ular shu go'zal hayotdan bebahra yashasalar!?

Yuqorida keltirilgan fikrlardan to'g'ri xulosa chiqarmoq o'quvchining o'ziga havola. Hayotining zulmatlardan asrang, bolalar!

Akrom MALIKOV

UCH NASIHAT

O'n sakkiz yoshli yigitcha bobosidan so'radi:
— Hayotda nimaga ko'proq e'tibor qaratgan ma'qul?
Bobosi javob berdi:
— Uch narsaga e'tibor qaratganda, kam bo'lmaysan, bolam!
Ya'ni, gapirsang to'g'ri gapir, va'daga vafo qil, omonatga xiyonat qilma!

NODON

Donodan so'radilar:
— Kim nasihatga qulq solmaydi?
— Nodon kimsa! — javob qildi u.

KIMNI HURMAT QILISHADI

— Donolar kimlari hummat qilishadi?
— E'tiqodli yoshlarni, saxiylarni, tavozeli bo'lganlarni!

NECHA YIL YASHAMOQCHISAN?

Butun odamzod, har bir inson turgan gapki, sen ham uzoq umr ko'rishni xohlaysan. Peshonada yozilgani bo'ladi, deyuvchilar ham bor. Ammo Lev Tolstoy, Mahatma Gandilar uzoq umr kechirish uchun hayot tarzlarini doimo tartibga solib turganligini bilasamni?

Go'shtli ovqatlarni kamaytirib, o'rik sharbatli ichib, meva, savzavotlar iste'mol qilib turgan kishilarning 100-115 yoshgacha umr ko'rganlari allaqachon isbotlangan. Grelandiyada tadqiqot o'tkazgan olimlar bu yerlik ba'zi kishilarning ko'p go'sht iste'mol qilishlari oqibatida bor-yo'g'i 30-40 yil umr ko'rganlari aniqlashgan. Aksincha, Ekvador tog'li qishloqlarida umuman go'sht iste'mol qilmagan aholi 100-120 yoshgacha umr ko'rishar ekan. Ulug'ajodolarimiz Bahoudin Naqshband hazratlarining «Kam ye, kam gapir, kam uxla», degan hikmati behuda emas, albatta. Xullas, uzoq umr ko'rish, bir jihatdan o'zimizga ham bog'liq. Shunday ekan, ovqatlanish ham katta san'at ekanligini doimo yodda tutgan ma'qul.

SAODAT

AVVAL YO'LDOOSH, KEYIN YO'L

Laylak turnadan so'radi:
— Safarga chiqishdan oldin nimaga e'tibor bermoq zarur?
— Safarga chiqishdan avval yo'l dosh tanlanadi.
— U qanaqa bo'lishi kerak?
— Yo'l dosh bir so'zli, iymonli va senga e'tiqodli bo'lishi lozim. Aks holda, bunday yo'l dosh seni ham, boshqalarni ham sharmanda qiladi.

TEKINXO'R SO'ZLAR

Uyat iboralar u yoqda tursin, suhbatdoshimizning qo'shgapirishi ham g'ashimizga tegadi. Shuning uchun «bilasamni?», «anaqa», «tak chto», «bratan», «men sizga aytasam», «mujikmisan?», «paxan» kabi tekinxo'r so'zlarni ishlatishdan tiyilgan ma'qulroq.

O'zbek tili dunyodagi eng boy va go'zal tillardan biri. Uning nufuzini oshirish siz bilan bizga bog'liq. 18 dan o'tgan har bir yosh uning nufuzi va sofligi uchun kurasha, ona sutini halollagan bo'ladi. Tekinxo'r so'zlarni ishlatmang, u sizni obro'sizlantiradi.

«O'T BALOSIDAN ASRASIN»

Xalqimizning bu naqli barchamizga tanish. Idimdan qolgan bu naqlni keksalarimiz ko'p ishlatishadi. Agar inson o'zini-o'zi saqlasa, har bir ishlarga e'tiborli bo'lsa, har qanday baloni oldini olishi mumkin. Yong'indan saqlanish, uyojylarimizni, ishxona-yu o'quv maskanlarimizni tartibli boshqarish har birimizni mas'uliyatlari burchimiz ekanligini unutmasak, bas.

M. E. RISBEKOV,
24-XYOHQning kichik
inspektor, safdar

«Yong'in xavfsizligi oyligi» davom etmoqda



Husniddin NOSIROV,
Yakkasaroy TIIW YOXV inspektori,
katta leytenant

YAXSHI

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi maktab, litsey, kollej o'qituvchilari, o'quvchilari va kutubxonalar uchun lotin alifbosida chop etilgan, adabiyot darsliklariga kiritilgan (hikoyalar, qissalar, romanlar, she'rlar, ertaklar, dostonlar, g'azallar) kitoblar jamlanmasini



TAQDIM ETADI

KITOBALAR

- Jamlanma narxi 70.241 so'm 98 tiyin.
Kitoblar jamlanmasi quyidagilardan iborat:
1. «Vafq qilsang». G'azallar, A.Navoiy.
2. «Shavqingni yod etib». G'azallar, M.A.Bedil.
3. «Jamila». Qissa, Ch.Aytmov.
4. «Besh bolali yigitcha». Roman, X.Xo'txaboyev.
5. «Kalila va Dimna». Hind eposi.
6. «Lison ut-tayr». A.Navoiy.
7. «Hamsa». A.Navoiy.
8. «Men nechun sevaman O'zbekistonni». She'rlar, A.Orlov.
9. «Saodat sohibi». Qissalar va hikoyalar, X.Sultonov.
10. «O'zbek xalq ertaklari». Ertak.
11. «Dilim daryoi nudir». G'azallar, B.Mashrab.
12. To'plam. «Zulfiya qizlari». She'rlar.
13. «Chorak asr hamnafas». Xotira, K.Qahhorova.
14. «Tanlangan asarlar». Hikoyalar, A.Qahhor.
15. «O'zbeklar». Hikoyalar, hajviyalar, O'.Hoshimov.
16. «Zumrad va Qimmat». Ertak.
17. «Sofdil Mallavoy». Ertak.
18. «Qassob bobomning iti». Hikoyalar, N.Aminov.
19. «Alpomish botir». Ertak.
20. «Pahlavon Rustam». Ertak.
21. «Holva yemagan bola». Qissa, I. Zoir.
22. «Yashash tilsimi». Badiyalar, T.Sodiqova.
23. «Mantiq ut-tayir». F.Attor.
24. «Bahor sog'inchi». Qissalar, O'.Hoshimov.

BOR

Ushbu kitoblar ma'naviyatimizni boyitishga xizmat qiladi.

Murojaat ushun telefonlar: (8 371) 142-35-47, 142-83-29, 144-11-19, 144-64-52. Faks: (8-371) 142-82-69, 144-22-53.



Tabriklaymiz!

Albina opa! Siz go'zal Farg'onamizning san'atsevar fidoyi ustozlaridan birisiz. Sizni bolalar ni sevuvchi go'zal qalbingizga, ishonchingizga doimo munosib izdosh bo'lishga harakat qilamiz. Tavallud kuningiz bilan qutlab, ijodiy parvoz va sihat-salomatlilik tilaymiz.



Farg'ona tumanidagi 26-Bolalar musiqa maktabi o'quvchilari



Ismim Ulug'bek. Temur bobojonim niyat qilganlaridek, falakiyot ilmining sultonni Mirzo Ulug'bek bobomdek bo'lishga intilib yashayman.



Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lмаган xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOVA

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHOYODGOROV
Navbatchi:
Ma'mura MADRAHIMOVA

Gazeta
O'zbekiston matbuot va axborot agentligida
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

«HAYOTIMIZ QOMUSI» AYLANMA KROSSVORDI



Javoblar shaklda belgilangan xonadan raqam atrofiga soat mili yo'nalishida yoziladi.

- Ma'lum bir tizimga solingan qonunlar majmuasi.
- «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi»ning XXIII bobi nomidan: «..... tizimi».
- Bosh qomusimizning «Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar» bobidan: «Bepul umumiyy olish davlat tomonidan kafolatlanadi».
- Sud muassasalari majmu.
- Respublikamiz qonun chiqaruvchi organining tarkibiy qismi.
- Vatanimizda faoliyat olib borayotgan siyosiy partiyalardan biri.
- O'zbekiston Respublikasining davlat mukofoti nomidan: I va II darajali «... avlod» ordeni.
- Qomusimizning 31-moddasidan: «Hamma uchun ... erkinligi kafolatlanadi».
- Ma'muriy hudud.
- Konstitutsiyamizning 1-bo'limi nomidan: «... prinsiplar».
- Hayotimiz qomusidagi XXV bob 122-moddasidan: «O'zbekiston Respublikasi o'z ... va pul-kredit tizimiga ega».
- Ma'lum bir lavozimga saylanuvchi.
- Biror sohaning yetakchisi.
- Ko'pchilik, xaloyiq.
- Bosh qomusimizning «Oila» bobidan: «Davlat va jamiyat yetim bolalarni va otalonalarning vasiyligidan ... bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi».
- Davlatimizning doimiy aholisiga mansub bo'lgan qonunlarimiz bilan belgilangan barcha huquqlardan foydalanuvchi va shu qonunlarda qayd etilgan barcha burchlarni ado etuvchi kishi.

MUAMMONOMA

Quyida ta'riflangan so'zlarni topib, shakl atrofidiagi rim raqamidagi xonajardan boshlab yozish bilan muammonomani hal eting:

- Aziz vatanimizga berilgan nom.
- Mustaqillikka ega bo'lgan davlat.
- Xalqchilik tamoyiliga asoslangan idora tizi.

IV. Hokimiyatning oliy organlari ma'lum muddatga saylab qo'yiladigan davlat tizimi va shunday tizim o'rnatilgan mamlakat.

Endi javoblarni ketma-ket o'qisangiz, «Hayotimiz qomusi»ning ilk moddasida betakror mamlakatimizga berilgan ta'rifi bilib olasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 144-27-25 144-63-08
Tel./Faks: (99871) 144-38-10

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV

Gazeta «O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida
chop etildi.

Gazeta haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 18363
Buyurtma N: J 4342